USMON AZIM SHE'RIY MATNLARINING ASSOTSIATIV STRUKTURASI

Rahmonov Husanboy Abjalil o'g'li
Qo'qon DU o'qituvchisi (PhD)
Sidiqova Nargiza To'lqinjon qizi,
Qo'qon DU magistranti,
nargizasidiqova00@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Usmon Azim poetikasida assotsiativ strukturalarning shakllanish mexanizmlari, ularning semantik tabiati va badiiy funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot kognitiv poetika, assotsiativ semantika, lingvopoetika va psixolingvistika nazariyalariga tayangan holda olib borildi. She'riy matnlarda tabiat obrazlari, ruhiy kechinmalar va milliy timsollar o'zaro assotsiativ bog'lanishlar orqali poetik makon yaratishi aniqlandi. Kognitiv-assotsiativ, emotsional, simvolik va madaniy assotsiatsiyalarning namunalari misollar asosida yoritildi; "tun", "yurak", "yo'l", "shamol", "ko'z" kabi dominant semantik maydonlar aniqlanib, ular orqali shoirning badiiy dunyoqarashi ochib berildi. Tadqiqot natijalari Usmon Azim she'riyatida assotsiativ tafakkur ma'no shakllanishining asosiy mexanizmi ekanini ko'rsatdi va o'zbek zamonaviy poetikasida kognitiv yondashuvning ahamiyatini qayd etdi.

Kalit so'zlar: *assotsiativ struktura, kognitiv poetika, lingvopoetika, assotsiativ semantika, psixolingvistika, metafora, semantik maydon, poetik obraz.*

Abstract

This article examines the associative structures that define the poetic worldview of Usmon Azim, one of the leading figures in modern Uzbek poetry. Drawing on the theoretical foundations of cognitive poetics, associative semantics, linguopoetics, and psycholinguistics, the research analyzes how the poet constructs meaning through complex associative links between natural imagery, emotional states, and culturally significant symbols. The findings demonstrate that recurrent images such as *night*,

heart, *wind*, *path*, *river*, and *silence* form dominant semantic fields that activate deep emotional and cognitive responses in the reader. Through cognitive-associative, emotional, symbolic, and cultural association types, Usmon Azim creates multilayered poetic spaces in which internal psychological experiences are projected onto external natural phenomena. The study argues that associative thinking functions as a core mechanism of meaning-making in the poet's works and highlights the significance of cognitive approaches in understanding contemporary Uzbek poetic discourse.

Keywords: associative structures, cognitive poetics, associative semantics, linguopoetics, psycholinguistics, conceptual metaphor, semantic field, poetic imagery.

Kirish. Assotsiativlik lingvopoetikada "so‘z – obraz - ma'no" zanjiri orqali yaratiladigan ma'no ko‘lamining kengayishi, poetik matnda yashirin, bilvosita, konnotativ bog‘liqliklar orqali yangi obrazlar tug‘dirish jarayonidir. Bu hodisa psixolingvistika, kognitiv lingvistika va poetik semantika nuqtai nazaridan inson ongining tasavvur tizimi bilan bog‘langan.

O‘zbek poeziyasi, ayniqsa XX asr oxiri va XXI asr boshida, metaforik fikrlashning kuchayishi, shaxsiy poetik dunyoqarashning murakkablashuvi bilan assotsiativ obrazlar tizimini yanada boyitdi. Istiqlol davri shoirlarida, jumladan, Usmon Azim, Xurshid Davron, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Nodir Normatov, Jamol Kamol assotsiativ metafora, konnotatsiya, obrazli parallelizm kabi hodisalar faol kuzatiladi.

Usmon Azim zamonaviy o‘zbek poeziyasining eng innovatsion va psixologik-estetik jihatdan murakkab shoirlaridan biri bo‘lib, uning poetikasida assotsiativ strukturalar yetakchi badiiy mexanizmlardan sanaladi. Shoirning obrazlari, metaforalari, ruhiy o‘tishlari, kutilmagan ma'no bog‘liqliklari va ichki dialoglari ong oqimi hamda subyektiv kechinmalar bilan chambarchas qo‘shilgan bo‘lib, ularning asosida ko‘pincha assotsiativ fikrlash yotadi. Maqolaning nazariy poydevorini bir-biri bilan uzviy bog‘langan to‘rtta yo‘nalish tashkil etadi: assotsiativ semantika, kognitiv

poetika, lingvopoetika va psixolingvistika**.** Ularning har biri Usmon Azim poetikasidagi assotsiativ strukturalarni turli rakursdan yoritish imkonini beradi. Assotsiativ semantika so‘z va birliklarning nafaqat lug‘aviy (denotativ) ma’nosini, balki ular bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha: konnotativ, emotsional, madaniy va shaxsiy ma’nolar tizimini o‘rganadi. She’riy matnda obrazlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan yashirin bog‘lanishlar, ma’lum bir so‘z atrofida hosil bo‘ladigan semantik va assotsiativ maydonlar aynan assotsiativ semantika nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Bu yondashuv orqali Usmon Azim she’rlaridagi “tun”, “sham”, “yulduz”, “yo‘l”, “ko‘ngil” kabi tayanch obrazlarning ongdagi qo‘shimcha ma’no qatlamlari va ular uyg‘otadigan assotsiatsiyalar rekonstruksiya qilinadi.[1]

Metodologiya. Kognitiv-nutqiy tahlil D. Quronov va O. Madrahimovlarning til va tafakkur, poetik obrazlarning mental modeli, assotsiativ ma’no va ong strukturalari haqidagi qarashlari mavjud. Quronov badiiy matnni faqat estetik hodisa emas, balki “inson ongida qayta yaratiladigan kognitiv tuzilma” sifatida talqin qiladi;[2] Madrahimov esa so‘zning ma’nosi ongdagi “tasavvur chizmalari” orqali shakllanishini uqtiradi. Shu nuqtai nazardan, Usmon Azim she’riyatidagi obrazlar “tun”, “sham”, “yo‘l”, “yurak”, “iztirob” - o‘quvchi ongida qanday assotsiativ maydonlarni faollashtirishi kognitiv poeziya tamoyillari asosida tahlil qilindi. Kognitiv-nutqiy yondashuv shoir poetikasida obrazlar o‘rtasidagi mantiqan emas, ruhiy-assotsiativ tarzda yuzaga keladigan bog‘lanishlarni ochishga imkon berdi.

Lingvopoetik tahlil M. Sultonov, B. Nazarov va M. Abdullayev tomonidan ishlab chiqilgan poetik til, obraz tizimi, tropika va badiiy tafakkur haqidagi ilmiy tamoyillarga tayangan. Sultonov poetik matnni “ko‘p qatlamli semantik struktura” sifatida talqin qilib, metafora, metonimiya va ramzlarning ichki semantik faoliyatini ochib beradi. Nazarov esa she’riy obrazlarning milliy-madaniy asoslarini,

1 Sultonov M. Adabiy matn poetikasi. — Toshkent: Fan, 2012. — B. 47.

2 Quronov D. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2019. — B.50.

timsollarning semantik ko‘lami va poetik funksiyasini tadqiq etadi.[3] Ushbu qarashlardan kelib chiqib, Usmon Azim lirikasi uchun xos bo‘lgan metaforik-assotsiativ obrazlar, masalan, “sham – umid – yorug‘lik – kurash” yoki “tun – dard – ko‘ngil – sukunat” kabi strukturalarning lingvopoetik mexanizmlari izohlandi.

Assotsiativ-semantik xarita tuzish F. Xudoyberdiyeva, N. Erkinova va B. Sobirovlarning assotsiativ maydon va semantik guruhlash tamoyillariga asoslanadi. Xudoyberdiyeva assotsiativ ma’noni “so‘zning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy xotirada qo‘zg‘alayotgan semantik rezonansi” sifatida talqin qiladi;[4] Erkinova esa assotsiativ maydonni modellashtirishda markaziy va periferik obrazlar tushunchasini ilgari suradi. Shundan kelib chiqib, Usmon Azim poetikasida uchraydigan assotsiativ zanjirlar “yurak → dard → sokin tun → yomg‘ir → iztirob” kabi semantik tarmoqlanish asosida xaritaga tushirildi. Bu metod shoir poetikasining kognitiv modelini tiklashga xizmat qildi.

Komponent tahlil Sh. Rahmatullayev va R. Rasulovlarning semema, sema, konnotativ qatlamlar va leksik ma’noning strukturalanishi haqidagi ilmiy g‘oyalariga tayanib amalga oshiriladi. Rahmatullayevning fikricha, badiiy matnda so‘zning “emotsional-semantik zichligi” ortadi va uning semalari konnotativ jihatdan kengayadi. Rasulov esa poetik konnotatsiyani matndagi boshqa birliklar bilan o‘zaro aloqadorlikda ko‘rish zarurligini ta’kidlaydi.[5] Shu asosda Usmon Azim she’rlaridagi asosiy tasvir birliklari “yurak”, “sokinlik”, “iztirob”, “yorug‘lik”, “sham” komponent tahlil

Natijalar. Usmon Azim poetikasida assotsiativlik shoirning badiiy tafakkuri, individual dunyoqarashi, psixologik kechinmalari va milliy-estetik qarashlari bilan chambarchas bog‘liq. Shoir obrazlari ko‘pincha mantiqiy emas, balki kognitiv-emotsional assotsiatsiyalar orqali birlashadi

3 Nazarov B. Badiiy tafakkur va obrazlilik. — Toshkent: Ma’naviyat, 2007. — B.12.

4 Xudoyberdiyeva F. Badiiy matnda assotsiativlikning semantik asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2020. — №3. — B. 45–54.

5 Rasulov R. Leksik semantika masalalari. — Toshkent: Fan, 2005. — B 78.

“Ko‘zlarimning to‘q rangi – kuzning yog‘du to‘lg‘on kunlari.”

Bu satrda bir qarashda ikki mustaqil obraz *ko‘z* va *kuz manzarasi* berilgandek tuyuladi. Biroq kognitiv-assotsiativ struktura ularni ichki ma’noviy ko‘priklar bilan birlashtiradi. Mazkur misolda ko‘zning rangi kuz tasviri bilan qiyoslanishi metaforik emas, balki kognitiv-assotsiativ bog‘lanishdir. Chunki:

a) Ko‘z – insonning ichki dunyosi, hissiy olamining oynasi;

b) Kuz – tabiatning sokin, teran, falsafiy davri;

c) Yog‘du – ruhiy yumshoqlik, ma’naviy yoritilish ramzi.

Demak, shoirning qiyosi hukm emas, balki ongning assotsiativ reaktsiyasi sifatida yuzaga chiqadi.

Emotsional-assotsiativ strukturalar she’riy matnda obrazlar orasidagi bog‘lanishning tuyg‘ular rezonansi, ya’ni ichki kechinmalar uyg‘unligi asosida vujudga keladigan semantik aloqadir.

“Qahraton tun – yolg‘izlikning ovozi.”

Bu satr ikki asosiy obraz: *qahraton tun* va *yolg‘izlik* asosida qurilgan bo‘lsa-da, ular o‘rtasidagi bog‘lanish semantik emas, balki emotsional assotsiatsiya orqali shakllanadi. Har bir obraz o‘quvchi ongida ma’lum his-tuyg‘ularni chaqiradi, va ular o‘zaro rezonansga kirib, poetik dramatizm yaratadi.

TUN → QORONG‘ULIK → SOVUQ → SUKUT → IZTIROB → YOLG‘IZLIK → ICHKI OVOZ → DRAMATIK HOLAT

Bu zanjir shoir satrida yashirin tarzda mavjud bo‘lgan emotsional harakatni namoyish etadi: tashqi muhit (qahraton tun) → ichki kechinma (yolg‘izlik) → emotsional portret (ichki nola).

Simvolik-assotsiativ struktura bu she’riy matnda ramzlarning o‘zaro semantik rezonansi orqali ma’no maydonini kengaytirish tamoyili. Bu turdagi assotsiatsiyada obrazlar shunchaki ifodaviy vosita emas, balki keng semantik maydon yaratadigan timsollar sifatida ishlaydi. Ramzlar universal, madaniy yoki shaxsiy ma’nolarga ega bo‘lib, ularning assotsiativ rezonansi matnda chuqur falsafiy qatlam hosil qiladi.

“Quyosh – umid – yangi tong.”

Bu satr uchta yadro obrazni o‘z ichiga oladi. Har biri ramziy semaga ega va ular o‘zaro bir-birini semantik jihatdan kuchaytiradi.

Jadval 1. Simvolik obrazlar va ularning assotsiativ maydoni.

Obraz	Ramziy ma’no	ssotsiativ rezonans (semantik rezonans)
Quyosh	Hayot, nur, uyg‘onish, energiya	issiqlik, yorug‘lik, rivojlanish, yorug‘ kelajak
Umid	Ruhiy kuch, ishonch, intilish	ardavomlik, harakat, ruhiy ko‘tarinkilik
ngi tong	Yangilanish, poklanish, qayta tug‘ilish	uhiy uyg‘onish, yangi sahifa, ma’naviy tiklanish

Bu jadvalda obrazlar → ramzlar → assotsiativ maydonlar ajratib berilgan bo‘lib, ular yaxlit konseptual-me’yoriy tizim hosil qiladi.

QUYOSH → NUR → UYG‘ONISH → UMID → RUHIY I’TILISH → YANGI TONG → YANGILANISH → MA’NAVIY POKLANISH

Bu zanjir semantik kengayishni ko‘rsatadi: tashqi yorug‘lik → ichki ruhiy yorug‘lik → umidning tug‘ilishi → yangilanish.

Usmon Azim poetikasida assotsiativlikning muhim qatlamlaridan biri madaniy-kulturologik assotsiatsiyalardir. Shoir ko‘pincha o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, urf-odatlari, madaniy ramzlari va mental tasavvur shakllariga tayanadi. Bunday assotsiatsiyalar o‘quvchida faqat obraz emas, balki milliy identitetga oid semantik rezonansni uyg‘otadi.

Madaniy ramzlar orqali yaratilgan assotsiativ makon shoirning poetik dunyoqarashida milliy semiosferani tiklaydi — o‘zbeklikni, sharqona ruhni, tarixiy qatlamlarni eshitish mumkin bo‘lgan badiiy olamni shakllantiradi. “Oq darvoza” → poklik, yangi yo‘l, ostonani bosish marosimi.

Jadval 2. Usmon Azim poetikasida assotsiativ bo‘g‘inlar va badiiy effektlar tizimi.

She’riy misra	ssotsiativ bo‘g‘inlar	Semantik maydon	Badiiy effekt

‘Ko‘zlarimning to‘q rangi – kuzning yog‘du to‘lg‘on kunlari”	o‘z → rang → kuz → yog‘du	biat, xotira, ruhiyat	rizm, tasavvurni kengaytirish
Qahraton tun – yolg‘izlikning ovozi”	tun → sovuq → kunat → yolg‘izlik	psixologik maydon	matik kuch, ichki konflikt
Quyosh – umid – yangi tong”	quyosh → nur → umid → tong	kosmik va hiy maydon	tivatsion, falsafiy
“Sham yoqdim ichimda”	am → yorug‘lik → hki dunyo → umid	hiy maydon	uhiy uyg‘onish, sixopoetik kuch
Daryo oqadi – xotiralar oqadi”	yo → oqim → vaqt → xotira	aqt-kognitiv	vaqtning oqish modeli

Jadvalda ko‘rsatilgan obrazlar Usmon Azim poetikasida eng ko‘p uchraydigan dominant semantik markazlar bo‘lib, ular shoirning badiiy tafakkurini belgilovchi ramzlar tizimini tashkil etadi. Har bir obraz o‘quvchi ongida alohida assotsiativ maydonni faollashtiradi va shu orqali poetik ma’no yaratish jarayonida ishtirok etadi.

Xulosa. Usmon Azim poetikasining asosiy semantik mexanizmi assotsiativ tafakkurga tayanganini ko‘rsatdi. Shoirning tabiat tasvirlari, psixologik kechinmalari va milliy timsollari o‘zaro assotsiativ bog‘lanishlar orqali yaxlit poetik makon yaratadi. Metaforik model va assotsiativ zanjirlar Lakoffning konseptual metafora nazariyasiga mos ravishda ma’no hosil qiluvchi kognitiv strukturalar sifatida namoyon bo‘ladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan qaralganda, bu obrazlar o‘quvchi ongida emotsional rezonansni kuchaytiradi va idrok jarayonini faol ishtirokchiga aylantiradi. Usmon Azim she’riyatidagi assotsiativ strukturalar badiiy tasvirning estetik qudratini oshiribgina qolmay, o‘zbek poetikasida kognitiv va konseptual yondashuvlarning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Bu esa shoir ijodini zamonaviy o‘zbek adabiyotida alohida poetik fenomenga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Lakoff, G.; Johnson, M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 2003. — 256 b.

2. Stockwell, P. Cognitive Poetics: An Introduction. — London; New York: Routledge, 2002. — 256 b.

3. Tsur, R. Toward a Theory of Cognitive Poetics. — Brighton: Sussex Academic Press, 2008. — 396 b.

4. Lotman, Yu. M. Analiz poeticheskogo teksta. — Moskva: Prosveshchenie, 1972. — 240 s.

5. Quronov, D. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2019. — 350 b.

6. Sultonov, M. Adabiy matn poetikasi. — Toshkent: Fan, 2012. — 240 b.

7. Xudoyberdiyeva, F. Badiiy matnda assotsiativlikning semantik asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2020. — №3. — B. 45–54.

8. Nazarov, B. Badiiy tafakkur va obrazlilik. — Toshkent: Ma’naviyat, 2007. — 212 b.

9. Rasulov, R. Leksik semantika masalalari. — Toshkent: Fan, 2005. — 180 b.

10. Orifjonov, D. Korpus lingvistikasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Innovatsiya, 2021. — 154 b.